

МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ



Илимий-методикалық журнал

2024

3/3-сан

*Озбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жасындағы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарапы менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлигі тәрепинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы гүйалық берилген.*

Нөкис

3/3-сан 2024

июнь

Шолкемлестириүшилдер:

**Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендирүү Министрлиги,
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы**

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Маңсет АЙЫМБЕТОВ
Нагмет АЙЫМБЕТОВ
Айтмурат АЛЬНИЯЗОВ
Сапардурды АБАЕВ
Адхамжон АБДУРАШИТОВ
Хайрулла АЛЯМИНОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ
Дилшодхұја АЙТБАЕВ
Интизар АБДИРИМОВА
Тұлқин АЛЛАЁРОВ
Мариғжон АХМЕДОВ
Умида БАҲАДИРОВА
Фарҳад БАБАШЕВ
Ботир БОЙМЕТОВ
Гулзода БОЙМУРОДОВА
Шахло БОТИРОВА
Маманазар ДЖУМАЕВ
Асқар ДЖУМАШЕВ
Мухтар ЕРМЕКБАЕВ (Шымкент,
Қазақстан)
Алишер ЖУМАНОВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА
Холбой ИБРАГИМОВ
Шохида ИСТАМОВА
Умида ИБРАГИМОВА
Лола ИСРОИЛОВА
Алима КЕНЖЕБАЕВА (Тараз,
Қазақстан)
Ярмухаммат МАДАЛИЕВ (Шымкент,
Қазақстан)
Меруерт ПАЗЫЛОВА
Асқарбай НИЯЗОВ
Сабит НУРЖАНОВ
Захия НАРИМБЕТОВА
Хушбоқ НОРБҮТАЕВ
Улфат МАҲКАМОВ

Уролбой МИРСАНОВ
Сафо МАТЧОН
Шукурилло МАРДОНОВ
Камаладин МАТЯКУБОВ
Арзы ПАЗЫЛОВ
Барлықбай ПРЕНОВ
Раъно ОРИПОВА
Бахтиёр РАХИМОВ
Фурқат РАЖАБОВ
Муқаддас РАХМАНОВА
Светлана СМИРНОВА (Москва, Россия)
Дилшода САПАРБАЕВА
Феруза САПАЕВА
Зайниддин САНАҚУЛОВ
Мухаббат САЛАЕВА
Қаҳхор ТУРСУНОВ
Амина ТЕМИРБЕКОВА
Нурзода ТОШЕВА
Куанишбек ТУРЕКЕЕВ
Тажибай УТЕБАЕВ
Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ
Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Амангелди КАМАЛОВ
Вохид КАРАЕВ
Гулмира ҚАРЛЫБАЕВА
Ризамат ШОДИЕВ
Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Тармиза ХУРВАЛИЕВА
Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ
Гулрухсөр ЭРГАШЕВА
Гавхар ЭШЧАНОВА
Қонысбай ЮСУПОВ



Ruzimova I.X. Bo'lajak o'qituvchilarda tadqiqot mavzularini shakllantirish usullari	388
Xolmurodova L.E., Saidova M.Q. Oliy ta'linda umumiy va noorganik kimyodagi moddalarning xossalari simmetrik ko'rinishlarda talabalarga turli xil zamonaviy metodik tamoyillarini shakllantirish	393
Абатов Ж.Б. Таалаба - ёшларда танкидий фирклаш сифатларини ривожлантириша анъянивий ва ривожланаётган таълим технологияларининг ўрни ва аҳамияти	399
Xanmuratova S.X., Xudayarova M.T. Atoqli otlarni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati	404
Мадаминов З. Особенности развития у будущих педагогов потребительского отношения к виртуальности	413
Тургунов С.Т., Набиев Г.А. Роль образовательного менеджмента в глобальной экономике	418
Шахмуррова Г.А., Халилова Р.А. Формирование генетической грамотности в непрерывном образовании	424
Ахмедова М.А. Педагогическое сопровождение профессионального самоопределения учащихся на разных ступенях общего образования	429
Alimjanova F.I. The adequacy in using games	432
Bekturjanova Z.K. Problem-based learning based on the implementation of inter-subject connections of chemistry and biology	436

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ХЭМ РУЎХИЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

Карлибаев М.А. Абдурасул охун мадрасаси ҳақида	440
Bababanova N. X., Ergasheva R.T. Qadimi yodnomalarda mifologik tafakkur va mifologik obrazlar	447
Ozodova O'.D. Tarix ta'lida mahalliy tarixning ahamiyati: Toshkent viloyati Parkent tumani misolida	452
Ходжаева Д.Ю. Жадидчилик ҳаракати намояндларининг аҳлоқий қарашлари ва унинг ёшлар тарбиясидаги ўрни	457
Maxmanazarova S.Sh. Taekvandoning kelib chiqish tarixi	463
Islamova D.B. Ota-ona qaramog'isiz qolgan kichik va katta yoshdagи o'smirlar shaxs ususiyatlarining psixologik tavsifi	465
Курбанова Да.А. Из истории развития тестирования	474

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Бижанов А.К. Техникалық билим бағдарларын оқытыўда механизмлер ҳэм манипуляторларды моделлестириў арқалы колланыў	479
Калилаев А.Ж. Мактабда физика фанини ўқитишнинг аҳамияти	484
Kodirov I.N. Korxonalar bilan o'zaro hamkorlikda muqobil energetik kadrlar tayyorlashda dual ta'lim tizimining o'rni	491
Soyibnazarov A.I. Fizikani o'qitishning zamonaviy ta'lim texnologiyalari va metodlari	499
Kalimbetov K.I., Adilbaeva M.O., Ómirbaeva D.A. Qat'iymas bo'lgan ma'lumotlarning ko'pligi sharoitida o'qitish va baholashda qarorlar qabul qilish	507
Musayev A. Sh. Nerv sistemasining anatomiyasi va fiziologiyasi	513
Ergashev Sh.N. Raqamlashtirilgan ta'lim sharoitida matematik va dasturiy vositalar imkoniyatlaridan foydalanish	518
Abdusamatova G.Z. Zamonaviy web texnologiyalardan foydalanish	523
Rasuleva M.R. Ommaviy axborot vositalarining talabalar hayotidagi ta'siri hamda axborot xurujlari	529
Xodjayeva M. S., Aliyeva N. Sun'iy intellekt tizimlari va raqamli texnologiyalarning ta'lim sohasida qo'llanilishi	535
Sodikova N. I., Xashimxodjaeva M.Dj. Raqamli iqtisodiyot texnologiyalari va elektron tijoratning rivojlanish tamoyillari	541

QADIMIY YODNOMALARDA MIFOLOGIK TAFAKKUR VA MIFOLOGIK OBRAZLAR

Babadjanova N. X.

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
fakultetlararo chet tillar kafedrasi o'qituvchisi*

Ergasheva R.T.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti tarix yo'nalishi 2 bosqich talabasi

Tayanch so'zlar: mif, mifologik tafakkur, mifologik obrazlar, turkiy afsonalar va miflar.

Ключевые слова: миф, мифологическое мышление, мифологические образы, турецкие легенды и мифы.

Key words: myth, mythological thinking, mythological images, Turkish legends and myths.

Mif – xalq og'zaki ijodining eng qadimgi davrlarida paydo bo'lgan va insoniyatning olam haqidagi o'sha davrlardagi tasavvurlarini nafaqat aks ettiradi balki, aniq obrozlar vositasida bo'rttiruvchi e'tiqodiy qarashlarni, to'qimalarni o'zida mujassamlashtiradi. Ya'ni koinotning yaratilishi, samoviy jismlarning paydo bo'lishi, o'simliklar va hayvonot dunyosining vujudga kelishi, tabiiy hodisalarning sabablari va mohiyati afsonaviy qahramonlar, ma'budlar va ilohlar to'g'risidagi e'tiqodiy qarashlarni o'z ichiga oladi.

Mifologiya – miflarni o'rghanuvchi fandir va ibridoiy madaniyatning asosi - olamni idrok etishning qadimgi vositasi va badiiy tafakkurning ibtidosidir. Mifologiya – inson aqliy faoliyati taraqqiyotining dastlabki bosqichi sifatida muhim ahamiyatga ega. Uning asosini qadimgi odamning mifologik tasavvurlarini o'zida mujassamlashtirgan miflar tashkil etadi. Mifologiya bir jihatdan odamlarning dunyo tabiat va inson haqidagi fantastik go'yalarini aks ettiruvchi xudolar, qahramonlar, ruhlar, badiiy to'qimalar haqidagi hikoya qiluvchi afsona va asotirlar majmui hisoblansa, boshqa jihatdan afsonalarning kelib chiqishi, mazmuni, ularning tarqalishi avloddan avlodga yetib kelishi, ularning boshqa xalq ijodiyoti janrlari bilan aloqalarini diniy e'tiqod va marosimlarini, tarixning tasviriy san'ati, afsona va to'qimalarning mazmun



mohiyati bilan aloqador jihatlarini o'rganadigan fandir. Shuning bilan bir qatorda mifologiya mafkuraning shakllarini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi va u falsafa, ilmiy g'oyalar, adabiyot va madaniyatni shakllantirish uchun manba vazifasini bajaradi.

Miflar folklordagi dastlabki ijod namunalari bo'lgani uchun juda sodda shaklda, qisqa hajmda yaratilgan. Ularda ibtidoiy insonlarning borliq, olam jumboqlari, tabiat va koinot sirlarini bilishga intilishi, bu boradagi ilk tasavvurlari va xulosalari, xudolar, pahlavonlar, o'simliklar va hayvonlar olami, ayrim narsalarning paydo bo'lishi haqidagi qarashlari o'z ifodasini topgan. Miflarda olam va uning yaralishi, boshqarilishi haqidagi ilk tushunchalar xayoliy uydirma orqali bayon etilgan. Real voqeа-hodisalarning qanday yuz berishini hali tushunib etmagan, ongi juda past bo'lgan ibtidoiy inson ularni tangri-ma'budlar haqidagi qarashlari, tasavvur-tushunchalari asosida talqin qilgan. Shu tariqa miflar og'zaki ijod mahsuliga aylangan. Ular tarkibidagi epik motivlar og'izdan-og'izga ko'chib,yangi-yangi miflar yuzaga kelishiga zamin yaratgan. Bora-bora ular afsona, ertak, doston singari janrlar syujetidan ham o'rin olgan. Epik tafakkurning tadrijiy taraqqiyoti nuqtai nazaridan qaraganda, folklordagi barcha janrlardan oldin, ayniqsa, afsonalardan oldingi stadal bosqich sifatida shakllanganligi ta'kidlanadi. Buni ularda faqat xalqimizning eng qadimgi mifologik tasavvurlari talqin etilgani, tarkibida inson personaj mutlaqo ishtirok etmagani, voqelik mifologik obrazlar orqali yoritilgani bemalol asoslaydi.O'zbek miflari syujet tarkibini turkiy va boshqa xalqlar mifologiyasi bilan bog'liq ko'plab qadimiy motivlar tashkil etadi. Shunga ko'ra, ularning mazmun mundarijasi rang-baranglik kasb etadi. Deyarli barcha miflarning syujeti bir yoki ikki epizoddan iborat bo'ladi. Syujet voqealarini ko'pincha tugundan boshlanadi.Miflar, asosan, eng qadimgi davr folklorining ilk bosqichida yaratilgan. Shuning uchun ular qadimgi davr folklori tizimidan o'rin egallagan.

Jahon xalqlari folklorida miflar alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, jahon antik adabiyotini o'rganishda mifologiya muhim vosita vazifasini o'taydi. Negaki, antik adabiyot mifologiya asosida yuzaga kelgan. Shuni e'tiborga olib, rus adibi M.Gorkiy - adabiyotning boshi - folklorl, - mifologiya xalq badiiy faoliyatining alohida badiiy ustqurmasi- ekanini alohida ta'kidlaydi. Mif yaxlit janr sifatida og'zaki ijodga mansub nasriy asarlar tizimida to'liq holda saqlanib qolmagan. Faqat epos, ertak, afsona, qo'shiq, topishmoq, marosim folklori, irim-sirimlar va turli ishonchlar bilan bog'liq aytimlar tarkibida ayrim mifologik syujet elementlari uchraydi, xolos. Ana shu mif qoldiqlarini, mifonim va mifologemalarni o'rganish uchun muhim zamin vazifasini o'taydi. Turkiy

xalqlar mifologik tizimining tarkibiy qismi bo‘lgan o‘zbek mifologiyasining taraqqiyoti qadimgi ajdodlarimizning totemistik, animistik,dualistik va magik inonchlari; ibtidoiy odamlar turmushida ritual-ramziy ahamiyat kasb etgan marosimlar; O‘rta Osiyoda yashagan qadimgi qavmlar dunyoqarashida alohida o‘rin tutgan otashparastlik aqidalari; o‘lkamizda shakllangan qadimgi dehqonchilik madaniyati an‘analari bilan bog‘liq hosildorlik kultlari; islom dini ta’limoti va u orqali O‘rta Osiyoga kirib kelgan Sharq, xususan, arab folklori an‘analari; mo‘g’ul va buryat, chin va hind, eron va yunon mifologiyasining ijodiy ta‘siri bilan bevosita aloqadordir. Shunga ko‘ra, o‘zbek miflarning yuzaga kelishi va shakllanish jarayoni quyidagi bosqichlariga nazar splamiz:

a) O’rol-oltoy qabilalarining mifologik tasavvurlari. Ma’lumki,tilshunoslikda -oltoy tillari oilasi, -prooltoy tili kabi tushunchalar mavjud. «Oltoyshunoslik nazariyasi» tarafdarlarining fikricha, turkiy, mo‘g’ul-buryat,tungus-manchjur (ba‘zilar koreys va yapon tillarini ham shu tarkibga kiritadilar) xalqlarining qadim ajdodlari aslida yagona bir qabilaga mansub bo‘lib, ular - prooltoy tili yoki - prooltoy shevasilda so‘zlashganlar. Biz ham ana shu nazariyaning asosiy xulosalariga suyangan holda turkiy-mo‘g’ul-buryat-tungusmanchjur tillarida so‘zlashuvchi xalqlar folkloridagi tipologik mushtaraklikni tashkil etadigan epik qatlam bu xalqlar og‘zaki ijodiyoti tarixining oltoy davriga mansub qadimiy syujetlar silsilasidan iborat, deb hisoblaymiz. Ana shu mushtarak epik an‘ananing asosiy qismi arxaik miflarning qoldiq holda etib kelgan ko‘rinishlari bo‘lib, bu asotirlar tarixan - prooltoy folkloril yoki - prooltoy mifologiyasining tarkibiy qismini tashkil etgan. Mushtarak variantlari yoki o‘xhash namunalari mo‘g’ul-buryat va tungus-manchjur xalqlari og‘zaki ijodida ham mavjudligi aniqlangan o‘zbek miflari (yoki muayyan syujet elementi, obraz,motiv tarzida saqlanib qolgan mif qoldiqlari) - prooltoy mifologiyasiغا mansub asotirlar sirasiga kiradi. O‘zbek mifologiyasi rivojining bu davriga oid folklor asarlaridan eng xarakterlisi bo‘ri to‘g‘risidagi totemistik miflardir.

Bo‘ri-ajdod yoki homiy haqidagi eng qadimiy mifologik afsonalardan birida ashina urug‘ining kelib chiqish tarixi shunday bayon qilinadi: «Ashina Xun uyining bir qismi sanaladi. Bu urug‘ bosqinchilarning kutilmagan hujumi natijasida qirib yuborilgan. Faqat o‘n yashar bir bola g‘animlar tig‘idan omon qolgan, xolos.

Dushman sarbozlari bolaning qoniga zomin bo‘lishni istamay, uning qo‘loyoqlarini chopib, ko‘l bo‘yidagi bir o‘tloqqa tashlab ketibdilar. Bolani bir bo‘ri go‘sht berib boqa boshlabdi. Bolaning o‘lmanligidan xabar topgan dushman hukmdori uni yo‘q qilish uchun odam yuborgan. Lekin bo‘ri bolani



olib Sharq tomondagi toqqa qarab qochibdi va qoyalar orasidagi g'orda yashab, o'sha boladan o'nta o'g'il tug'ibdi. Ana shu bolalar ulg'ayib, bola-chaqa orttirib, keyinchalik har qaysi bir urug`ga asos solgan emish».1 Afsonada aytlishicha, bo'rining o'g'illari orasida eng kuchli va chaqqoni Ashina bo'lgan. Shuning uchun ham u yangidan tiklangan urug`ning bosh sardori sifatida tan olingan. U o'z qarorgohiga bo'ri boshining suvrati tasvirlangan tug` o'rnattirgan ekan.N.Ya.Bichurinning qayd qilishicha, Ashina urug`i lashkarining jangovar tug`va a'lamlarida ham bo'ri boshining tilla suvi yuritib ishlangan tasviri tushirilgan bo'lib, qabila boshlig`ining xos qo'riqchilari ham «fuli», ya'ni «bo'ri» deb atalgan ekan. Chinlik sarkardalar o'z qo'shinini turkiy qabilalarga qarshi jangga yo'llashdan burun «ko'chmanchilarni haydab, bo'rilarga hujum qilish» haqida ko'rsatma berishlarining boisi ham ana shunda ekan.

b) Mif taraqqiyotining qadimgi turkiylar davri. Oltoy qabila birlashmasidan ajralib chiqqan turkiy qavmlar o'z bobokalonlarining totemistik qarashlariga ishonishdan iborat an'analarini davom ettirganlar. Bo'ri qadimgi turkiy qabilalardan birining ajdodi, homysi, totemi hisoblangan. Ana shunday urug` totemlari haqidagi mifologik tasavvurlar asosida dastlabki geneologik mif va afsonalar (masalan, Ashina haqidagi mif) yuzaga kelgan.

v) Mifning milliy folklordagi taraqqiyot bosqichi. Turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlarning aksariyati bo'ri-ajdod haqidagi qadimgi turkiy miflar syujetining ma'lum qirralarini o'z milliy folklor an'analar badiiy zaminida rivojlantirganlar.

Natijada u yoki bu turkiy xalqning kelib chiqishi haqidagi etnogenetik afsonalar (masalan, 92 o'zbek urug`ining dunyoga kelishi va boshqirdlarning kelib chiqishi to'g'risidagi afsonalar), muayyan xalq tarkibidagi urug'larning kelib chiqishi haqidagi geneologik afsonalar (sayak, bo'ri singari qirg'iz urug'lari; bo'rinyaman, bo'risalyut, bo'ri kabi chuvash va boshqird qabilalari; uyshun, bo'ri nomli o'zbek urug'lari haqidagi afsonalar) va bo'rining paydo bo'lishi to'g'risidagi zoomorfik afsonalar (qatag'on urug'iga mansub o'zbeklarning bo'riga aylangan odam haqidagi afsonasi) yaratilgan.

Adabiyotlar:

1. Kun, N. (2013). Qadimgi Yunon afsona va rivoyatları. Toshkent.
2. Madayeva, S. O. (2019). Falsafa. Toshkent.
3. Safarov, O. (2010). O'zbek xalq og'zaki ijodiyoti. Toshkent.
4. Каменский, М. И. (1976). Миф. Ленинград.
5. Лосев, А. (1991). Философия. Миология. Москва.
6. Шахнович, М. И. (1971). Первобытная мифология и философия. Ленинград. Наука
7. Babajanova, N. X. (2021). Mifologik dunyoqarashlarning o'ziga xos xususiyatlari va ularning inson ongiga ta'siri. Academic research in educational sciences, 2(6), 1501-1505.

8. Babadjanova, N. X. (2021). Myth and social reality: social and communicative the paradigm of interpretation. *Theoretical & Applied Science*, (6), 713-717.

9.Г. К. Қдырбаева Н. Х. Бабаджанова Соляр мифологиянингrudimentларига синхроник ёндашув. *Academic Research in Educational Sciences. Volume 3 | Issue 6 | 2022*

РЕЗЮМЕ

Maqolaning mohiyati shundan iboratki, Mifologiya – miflarni o’rganuvchi fandir va ibtidoiymadaniyatning asosi - olamni idrok etishning qadimgi vositasi va badiiy tafakkurning ibtidosidir. Mifologiya – inson aqliyati taraqqiyotining dastlabki bosqichi sifatida muhim ahamiyatga ega. Uning asosini qadimgi odamning mifologik tasavvurlarini o’zida mujassamlashtirgan miflar tashkil etadi.

РЕЗЮМЕ

Суть статьи в том, что Мифология – наука, изучающая мифы, а в основе первобытной культуры – древнее средство познания мира и начало художественного мышления. Мифология важна как первый этап развития мыслительной деятельности человека. В его основе лежат мифы, воплощающие мифологическое воображение древних людей.

SUMMARY

The essence of the article is that Mythology is a science that studies myths, and the basis of primitive culture is an ancient means of understanding the world and the beginning of artistic thinking. Mythology is important as the first stage of the development of human mental activity. It is based on myths that embody the mythological imagination of ancient people.

Т. Н. Қары Ниязий атындағы Өзбекстан педагогикалық
илим-изертлеу институтының Ж. Орынбаев атындағы Каракалпақстан филиалы

**«МУГАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ
БИЛИМЛЕНДИРИҮ»**

№ 3/3

Нөхис — 2024

Басып шығыўға жуўапкер:

A. Тилегенов, С. Нуржанов

Баспаға таярлаған:

A. Тилегенов

Компьютерде таярлаған:

П. Реймбаев, З. Ниязымбетова

Мәнзил: Нөхис қаласы, Ерназар Алакөз көшеси №54

Тел.: +998 61 224-23-00, +998 61 224-01-34

e-mail: uzniipnkkf@mail.uz,

mugallim-pednaik@mail.uz

www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz

www.KRTEACH.UZ

Журналга келген мақалаларга жуўап қайтарылмайды, журналда жерияланған мақалалардан алынған үзиндилер «Мугаллим ҳәм үзликсиз билимлендіриү» журналынан алынды, дең көрсетилийи шәрт. Журналга 5-6 бет көлеміндеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледи. Мақалада көлтирилген маглыўматларга автор жуўапкер.

Оригинал-макеттен басыўға рухсат етилди 30.06.2024. Форматы 70x100^{1/8}

«Таймс» гарнитурасында оффсет усылында басылды.

Шәртли б.т. 31. Нашр. т. Нусқасы _____ Буйыртпа №